

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM SHAKLINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdusalimova Asila Alimardon Qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti 1-Kurs Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15836425>

Annotatsiya. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Maqola zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va bu orqali o'quvchilarning malakasini samarali rivojlantirish haqida.

Kalit so'zlar: amaliy mashg'ulotlar, nazariy bilimlar, ko'nikma, malaka, tajriba, muloqot, munozara

АННОТАЦИЯ

Сегодняшняя задача образования - научить студентов уметь работать самостоятельно в условиях возрастающей с каждым днем информационной образовательной среды, эффективно использовать современные информационные технологии в различных областях, разумно использовать потоки информации. находится в процессе современного образования об организации производственной практики и эффективном развитии навыков студентов посредством нее.

Ключевые слова: практическая подготовка, теоретические знания, навыки, компетентность, опыт, общение, дискуссия.

ANNOTATION

Today's task of education is to teach students to be able to work independently in an information educational environment that is growing every day, to effectively use modern information technologies in various fields, and to use information flows wisely. is in the process of modern education about the organization of practical training and the effective development of students' skills through it.

Key words: practical training, theoretical knowledge, skills, competence, experience, communication, discussion.

KIRISH

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Bugungi kunda boshqa sohalarda qatorida ta'lim sohasida islohatlar olib borilmoqda shuorinda Maktab menejmenti sohasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bular jahondagi ta'limi rivojlangan davlatlar qatorida kirish, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish bugungi kunning talabi, ta'limni rivojlantirmasdan hech bir sohani rivojlantirib bo'lmaydi". Prezidentimizning bu fikrlariningizida qanchalik chuqur ma'no borligi bizga ma'lum. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vatakomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati

darajasigako'tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'lim tizimida hamo'ziga xos o'zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda. Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbulbo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Amaliy mashg'ulot – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir. Amaliy mashg'ulotning o'ziga xos tomoni o'quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o'rni, o'qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg'ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o'rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o'zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim shaklini tashkil etishning ahamiyatli tomoni - unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to'qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo'lga qo'yiladi. Shuning uchun amaliy olib boruvchi o'qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o'z nuqtai nazarini dalilash, o'zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo'llarini aniq tanlashi lozim. Mashg'ulotning yakunida o'qituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashg'ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashg'ulotini o'tkazish haqida tavsiyalar berish, o'ylab ko'rish, fikrlarni yanada to'ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, qalam tasvir, rang tasvir) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Amaliy mashg'ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim shaklini tashkil etishni shunday tuzish kerakki, talabalarning malakasini samarali rivojlantirishi va zarur yordam ko'rsatishi kerak. Zamonaviy o'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga quyidagi strategiyalar yordam beradi

Maqsad va natijalarni belgilash: Har bir amaliy ish boshida talabalar uchun maqsad va kutilayotgan natijalar aniq belgilanishi kerak. Bu ularga qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlarini tushunishga yordam beradi va diqqatni o'quv maqsadlariga qaratadi.

Kompyuterlar va dasturiy ta'minot: Tasviriy san'at, chizmachilik, grafik dizayn, modellashtirish va boshqa vizual jarayonlar uchun maxsus dasturlar bilan jihozlangan kompyuterlar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. Bu talabalarga raqamli muhitda zamonaviy vositalardan foydalanish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli uskunalar: raqamli tasvirlarni yaratish va ular bilan ishlash uchun raqamli kameralar, skanerlar, printerlar va boshqa jihozlar bilan jihozlanishi mumkin. Bu talabalarga raqamli vositalar yordamida yorug'lik, kompozitsiya va tasviriy san'atning boshqa jihatlari bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi.

Multimedia proyektorlari va audio jihozlari: Multimedia proyektorlari va audio uskunalari kabi qo'shimcha jihozlar talabalarga o'z ishlarini namoyish qilish va taqdimotlarni

yanada dinamik va samaraliroq qilish imkonini beradi. Bu, shuningdek, interaktiv o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Baholash va fikr-mulohazalar: Baholash va fikr-mulohazalar uchun zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish mumkin. Ishlarni topshirish, ijodiy jarayonni baholash va muhokama qilish uchun onlayn platformalardan foydalanish mumkin. Zamonaviy tasviriy san'at xonasi qulaylik, funktsionallik va zamonaviy dizaynni birlashtirishi kerak.

Keng ish maydoni: Ish stoli barcha kerakli materiallarni (bo'yoqlar, mo'yqalamlar, qalamlar va boshqalar) joylashtirish uchun etarlicha katta bo'lishi kerak, shuningdek, qulay ishlash uchun etarli xajmga ega bo'lishi kerak.

XULOSA:

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali muammolardan bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy tizim. Bunda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, jarayon maqsadi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi, shart sharoitlari, texnologiyalar va uni boshqarishga samarali ta'sir etadi. Ta'lim tarbiya amaliyotiga bilvosita, ya'ni o'qituvchi mahorati didaktik vositalar, ta'lim texnologiyalar orqali kirib keluvchi ko'p qirrali muammodir. Kompyuter hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida amaliyotga tatbiq etish, shu sababdan barcha o'qituvchilarni kompyuter savodxonligi va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko'nikmalarga ega bo'lishdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharifxo'jaev M., Abdullaev q. Menejment. Daslik. - T.: o'qituvchi, 2021.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2021 y.
3. Shavkatovich, K. L. (2024). Integration of Digital Tools into Art Education. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, 2(2), 63-65.
4. Khalilov, L. S. (2022, November). SPECIFICITY OF THE LANDSCAPE GENRE IN THE ORIENTATION OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE PROFESSION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 4-10).